



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
<i>Abdiqayumova Malika</i>	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
<i>Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi</i>	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
<i>Atamirzayeva Ezoza</i>	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
<i>Aminova Asilaxon Sobir qizi</i>	
Совершенство методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
<i>Уразова М. Б., Абатова У. Б.</i>	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
<i>Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Gaipova Akjunis Qayratovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
<i>Alimov Bekzod Nematovich</i>	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
<i>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</i>	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
<i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
<i>Yusupova Mukhabbat Anatolyevna</i>	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
<i>Erkinova Sevara Najmiddin qiz</i>	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
<i>Gulsara Khakimova</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
<i>Hikmatova Jamila Fatoh qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
<i>I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna</i>	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
<i>Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi</i>	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
<i>Murodova Farangis G'anisherovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
<i>Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna</i>	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
<i>Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi</i>	
Sensor integratsiya autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
<i>Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	



BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHDA NEYROPEDAGOGIKA ASOSLARI



Hikmatova Jamila Fatox qizi
 Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini rivojlantirishda neyropedagogik yondashuvlarning pedagogik salohiyatini o'rganishga qaratilgan. Maqolada neyropedagogika tushunchasi, uning pedagogika, neyropsixologiya va kognitiv fanlar integratsiyasiga asoslanganligi, ta'lim jarayonida miya faoliyatini samarali qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, emotsional holat, faol o'qitish metodlari, multisensorli o'qitish va individual yondashuvning kognitiv rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Xulosa qilib aytganda, maqola pedagogik ta'limda neyropedagogik metodlarni tizimli qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: neyropedagogika, neyropsixologiya, kognitiv faollik, bo'lajak pedagog, miya faoliyati, bilish jarayonlari, innovatsion ta'lim, pedagogik innovatsiyalar.

Abstract: This article is aimed at studying the pedagogical potential of neuropedagogical approaches in developing the cognitive activity of future teachers. The article analyzes the concept of neuropedagogical, its basis in the integration of pedagogy, neuropsychology and cognitive sciences, the possibilities of effective use of brain activity in the educational process. The impact of emotional state, active teaching methods, multisensory teaching and individual approach on cognitive development is also analyzed. In conclusion, the article shows the importance of systematic application of neuropedagogical methods in pedagogical education.

Key words: neuropedagogy, neuropsychology, cognitive activity, future teacher, brain activity, cognitive processes, innovative education, pedagogical innovations.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению педагогического потенциала нейрпедагогических подходов в развитии познавательной деятельности будущих учителей. В статье анализируется концепция нейрпедагогического подхода, его основы в интеграции педагогики, нейрпсихологии и когнитивных наук, возможности эффективного использования мозговой активности в образовательном процессе. Также анализируется влияние эмоционального состояния, активных методов обучения, мультисенсорного обучения и индивидуального подхода на познавательное развитие. В заключение статья показывает важность систематического применения нейрпедагогических методов в педагогическом образовании.

Ключевые слова: нейрпедагогика, нейрпсихология, когнитивная деятельность, будущий учитель, активность мозга, когнитивные процессы, инновационное образование, педагогические инновации.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida jadal rivojlanib, pedagog shaxsiga qo'yiladigan kasbiy talablarni tubdan yangilamoqda. Bugungi kun pedagoglari nafaqat bilim beruvchi, balki ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'lishi kerak ^[1; 2].

Kognitiv faollik - shaxsning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji, axborotni ongli ravishda qabul qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash qobiliyati bilan tavsiflanadigan tushuncha bo'lib, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogning kognitiv faolligi uning kasbiy faoliyati samaradorligini bevosita belgilab beradi ^[4; 3].

So'nggi yillarda ta'limni inson miyasi faoliyatining tabiiy qonuniyatlariga moslashtirishga qaratilgan neyropedagogika ilmiy yo'nalishi pedagogik tadqiqotlarning muhim objekti sifatida shakllanib bormoqda ^[6; 9].

Neyropedagogika pedagogika, neyropsixologiya, kognitiv fanlar va neyrobiologiya integratsiyasi natijasida vujudga kelgan bo'lib, ushbu yo'nalish o'rganish jarayonida miya faoliyatining rolini ilmiy asosda tushuntirib beradi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini yanada boyitadi [5; 6].

Zamonaviy neyroilmiy tadqiqotlar inson miyasining plastiklik xususiyati mavjudligini isbotlab, bilim olish jarayonida yangi neyron aloqalar shakllanishini ko'rsatmoqda [7; 10; 11]. Ushbu jarayonlar ta'lim muhiti, o'qitish metodlari va emotsional holat bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy neyroilmiy tadqiqotlar inson miyasining muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan plastiklikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda. Miya plastiklik xususiyati tufayli tashqi muhit ta'sirida doimiy ravishda o'zgaradi, yangi bilim va tajribalar asosida neyron aloqalar shakllanadi va mustahkamlanadi [7; 11]. Bu holat ayniqsa ta'lim jarayonida yaqqol namoyon bo'lib, o'rganilayotgan axborotning mazmuni, uni o'zlashtirish usullari hamda ta'lim jarayonidagi emotsional holat bilan chambarchas bog'liqdir.

Masalan, an'anaviy, faqat tinglashga asoslangan dars jarayonida talabalarning miyasida neyron aloqalar nisbatan sust shakllansa, muammoli vaziyatlarga asoslangan, savol-javob va muhokama shaklida tashkil etilgan mashg'ulotlar miya faoliyatini faollashtiradi [6; 8]. Bunday holatda talabalar bilimni tayyor shaklda emas, balki izlanish, tahlil va xulosa chiqarish orqali o'zlashtiradi. Natijada miyada yangi neyron aloqalar hosil bo'lib, bilimlar uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi.

Shuningdek, emotsional holatning ta'lim jarayoniga ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Ijobiy psixologik muhitda, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi [11; 12].

Masalan, o'qituvchi tomonidan berilgan konstruktiv fikr-mulohazalar va ijobiy baholash talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, miyaning bilish jarayonlariga mas'ul bo'lgan sohalarini faollashtiradi. Bu esa bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, multisensorli o'qitish metodlaridan foydalanish ham neyron aloqalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar ta'lim jarayonida ko'rish, eshitish va amaliy faoliyat birgalikda qo'llansa, axborot miya tomonidan turli kanallar orqali qabul qilinadi.

Masalan, pedagogika fanlarini o'qitishda nazariy tushunchalarni real pedagogik vaziyatlar, amaliy mashg'ulotlar va vizual materiallar bilan uyg'unlashtirish bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan, neyropedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki miyaning tabiiy o'rganish mexanizmlariga mos holda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu yondashuv bo'lajak pedagoglarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va refleksiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi hamda ularning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Bugungi kunda neyropedagogikaning: individual neyropsixologik farqlarni hisobga olish, emotsional holat va motivatsiyaning o'rganishga ta'siri; faoliyat orqali o'rganish; refleksiya va takrorlashning kognitiv rivojlanishdagi roli kabi asosiy tamoyillari bor.


Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollik ularning kasbiy bilimlarni ongli, tizimli va ijodiy tarzda o'zlashtirishga bo'lgan intilishini ifodalaydi [4; 8; 12].

Tadqiqotchilar kognitiv faollikni pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydilar [4; 11]. Kognitiv faollik quyidagi tarkibiy komponentlardan tashkil topgan:

- bilishga bo'lgan ichki motivatsiya;
- diqqat va idrok jarayonlarini boshqarish;
- mantiqiy va tanqidiy fikrlash;
- muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish;
- reflektiv faoliyat.

Ushbu komponentlarning rivojlanishi bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilab beradi. Neyropedagogik yondashuvlar orqali kognitiv faollikni rivojlantirish:

Neyropedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonida talabaga faol subyekt sifatida qarashni ko'zda tutadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonida miya faoliyatining tabiiy mexanizmlariga mos metodlarni qo'llashni taqazo etadi.



1-rasm: Asosiy neyropedagogik yondashuvlar esa quyida keltirilgan

1-rasmda keltirilgan yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning bilish jarayonlarini faollashtiradi, mustaqil fikrlashini oshiradi va ijodkorlikni yuksaltiradi.

Oliy pedagogik ta'lim amaliyotida bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini rivojlantirish masalasi ko'pincha nazariy bilimlar doirasida cheklanib qolmoqda. Ta'lim jarayonida talabalarning diqqat, xotira, tafakkur va emotsional holatini hisobga olish yetarli darajada tizimlashtirilmagan [5]. Natijada, bilimlarning chuqur o'zlashtirilmasligi va ularni amaliy faoliyatda qo'llashda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ta'lim jarayoniga joriy etishning ilmiy asoslarini yoritishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kognitiv faollik va neyropedagogika tushunchalarining ilmiy-pedagogik mazmunini tahlil qilish;
- bo'lajak pedagoglarda kognitiv jarayonlarning shakllanish xususiyatlarini aniqlash;
- ta'lim jarayonida neyropedagogik yondashuvlarning samarali omillarini belgilash;
- kognitiv faollikni rivojlantirishga doir ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ta'lim jarayonini inson miyasi faoliyatining qonuniyatlariga mos holda tashkil etish masalasi pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini rivojlantirishda neyropedagogik yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo pedagogika, neyropsixologiya va kognitiv fanlar kesishmasida keng yoritilgan.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda kognitiv faollik shaxsning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiya qilish qobiliyatlari bilan uzviy bog'liq tushuncha sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar kognitiv faollikni pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi deb hisoblab, uning rivojlanishi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, oliy pedagogik ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Neyropedagogika yo'nalishidagi ilmiy ishlar ta'lim jarayonida miya faoliyatining roli va o'rganish mexanizmlarini chuqur tushuntirib beradi. Neyroilmiy tadqiqotlar inson miyasining plastiklik xususiyatiga ega ekanligini isbotlab, o'rganish jarayonida yangi neyron aloqalar shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar ta'lim muhiti, o'qitish metodlari va emotsional holat bilan chambarchas bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu sababli, an'anaviy, faqat axborot uzatishga yo'naltirilgan darslar bilan solishtirganda, faol va muammoli o'qitish metodlari miya faoliyatini yanada faollashtirishi aniqlangan.

Neyropsixologiya sohasidagi tadqiqotlarda diqqat, xotira, idrok va tafakkur jarayonlarining o'rganishdagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, emotsional holat ijobiy bo'lgan ta'lim muhitida bilimlar tezroq va mustahkamroq o'zlashtiriladi. Rag'batlantiruvchi baholash, konstruktiv fikr-mulohazalar va qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvlar miyaning bilish jarayonlariga mas'ul markazlarini faollashtiradi^[5; 10]. Bu esa o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyaning oshishiga olib keladi.

Shuningdek, adabiyotlarda multisensorli o'qitish metodlarining kognitiv rivojlanishga ijobiy ta'siri keng yoritilgan. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, axborotni bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali o'zlashtirish miya tomonidan axborotning chuqurroq qayta ishlanishiga yordam beradi. Bunday yondashuv ayniqsa bo'lajak pedagoglarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda neyropedagogik yondashuvlarning individual yondashuv bilan uyg'unligi ham muhim jihat sifatida ko'rsatiladi. Har bir talabning neyropsixologik xususiyatlarini hisobga olish, differensial topshiriqlardan foydalanish kognitiv faollikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Bugungi kunda MDH mamlakatlari olimlari tomonidan neyropedagogika va kognitiv rivojlanish masalalari keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, N. M. Borisova va L. V. Petrova o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonini miya faoliyatining neyropsixologik qonuniyatlariga moslashtirish o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikriga ko'ra, faol o'qitish metodlari va muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar diqqat va tafakkur jarayonlarini faollashtirib, bilimlarning ongli o'zlashtirilishiga xizmat qiladi^[6].

Shuningdek, A. A. Verbitskiy va I. S. Zimnyaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik ta'limda refleksiya va emotsional holatning bilish jarayonlariga ta'siri alohida e'tirof etiladi. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, ijobiy psixologik muhit va qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuv bo'lajak pedagoglarda o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi hamda yangi bilimlarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishiga yordam beradi^[12].

Mazkur ilmiy yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini rivojlantirishda neyropedagogika asoslarining yuqori pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. MDH olimlarining tadqiqotlari ta'lim jarayonida individual yondashuv, refleksiya va faoliyat orqali o'rganishning muhimligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, neyropedagogik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning kognitiv faolligini rivojlantirishda yuqori pedagogik salohiyatga ega. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati asosan nazariy xarakterga ega bo'lib, ularni oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga tizimli joriy etish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Shu bois, bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan keng foydalaniladi. Shuningdek, muammoli topshiriqlar, refleksiya va faol muloqotga asoslangan o'qitish metodlari talabalarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi^[4; 6]. Neyropedagogik yondashuvda individual xususiyatlarni hisobga olish esa kognitiv faollikning barqaror rivojlanishiga imkon yaratadi. Tadqiqot obyekti sifatida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar tanlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari neyropedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak pedagoglar ya'ni talabalarda: bilim olishga bo'lgan motivatsiyaning oshganini; diqqat va xotira jarayonlarining faollashganini; mustaqil va tanqidiy fikrlashning rivojlanganini ko'rsatdi.

1-jadval: Neyropedagogik yondashuv asosida kognitiv faollikni rivojlantirish omillari

Neyroilmiy omil	Ta'lim jarayonidagi ifodasi	Miya faoliyatiga ta'siri	Amaliy misol
Miya plastiklik xususiyati	Yangi bilim va tajribalar bilan boyitilgan mashg'ulotlar	Yangi neyron aloqalar shakllanadi va mustahkamlanadi	Muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali bilimni mustaqil kashf etish
Emotsional holat	Ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti	Bilish jarayonlariga mas'ul bo'lgan miya markazlari faollashadi	Rag'batlantiruvchi baholash va konstruktiv fikr-mulohazalar berish
Faol o'qitish metodlari	Munozara, savol-javob, refleksiya asosidagi darslar	Tafakkur va tahlil qilish jarayonlari kuchayadi	Talabalar bilan pedagogik vaziyatlarni muhokama qilish



Multisensorli o'qitish	Ko'rish, eshitish va amaliy faoliyat uyg'unligi	Axborot bir nechta kanallar orqali qabul qilinadi	Nazariy mavzuni slayd, video va amaliy mashq bilan birga o'qitish
Individual yondashuv	Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish	Kognitiv jarayonlar barqaror rivojlanadi	Differensial topshiriqlar orqali o'qitish
Motivatsiya	O'rganishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirish	Diqqat va xotira jarayonlari faollashadi	Kasbiy faoliyat bilan bog'liq real misollar keltirish

Olingan natijalar zamonaviy neyropedagogik tadqiqotlar bilan mos keladi hamda neyropedagogikaning pedagogik ta'limdagi ahamiyatini tasdiqlab beradi. Ta'lim jarayonida miya faoliyatining qonuniyatlarini hisobga olish va ulardan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirish jarayonida neyropedagogika asoslaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini miya faoliyatining tabiiy mexanizmlariga mos holda tashkil etish talabalar tomonidan bilimlarning ongli va tizimli o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Neyropedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak pedagoglarda bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, bunday yondashuvlar kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarni tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kognitiv faolligini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida : PF-5847-son Farmon (2019-yil 8-oktyabr). – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida : PF-158-son Farmon (2023-yil 11-sentyabr). – Toshkent, 2023.
3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent : O'zbekiston, 2020. – 400 b.
4. Abdullayeva M. A. Ta'lim jarayonida kognitiv faollikni rivojlantirish metodlari. – Toshkent : Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022. – 156 b.
5. Ansari D., Lyons I. M. Cognitive neuroscience and education // Educational Psychology Review. – 2020. – Vol. 32, № 3. – P. 705–726.
6. Borisova N. M., Petrova L. V. Neyropedagogik asoslar orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish // Pedagogika i psixologiya obrazovaniya. – 2021. – № 3. – B. 45–52.
7. Dehaene S. How we learn: The new science of education. – London : Penguin, 2023. – 368 p.
8. Ismoilov B. X. Pedagogik ta'limda bilish jarayonlarini faollashtirish masalalari // Pedagogika va psixologiya. – 2020. – № 4(2). – B. 45–52.
9. Karimova D. U. Neyropedagogika va uning ta'limdagi ahamiyati // Ta'lim va innovatsiyalar. – 2021. – № 3(1). – B. 18–24.
10. Meltzoff A. N., Kuhl P. K., Movellan J., Sejnowski T. J. Brain development and learning // Science. – 2023. – Vol. 381, № 6654. – P. 44–49.
11. Sousa D. A. How the brain learns. 6th ed. – Thousand Oaks : Corwin Press, 2021. – 376 p.
12. Verbitskiy A. A., Zimnyaya I. S. Talabalar bilish faolligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari // Vysheye obrazovaniye v Rossii. – 2020. – № 10. – B. 9–21.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.